

# ENGLAND

## INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND  
PRACTICAL CONFERENCE "MODERN  
PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY:  
PROBLEMS AND SOLUTIONS"**



**14 NUMBER  
8 APRIL**





INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE  
"MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND  
SOLUTION"

14-part, 2-142 pages.

Committee List for  
2023-2024

**Members Of The Editorial Board:**

1. **Dame Sally Davis** (*Chief Medical Officer*).
2. **Sir Bruce Keogh** (*medical director of the National Health Service*).
3. **David Livingstone** (*congregationalist pioneer medical missionary in South Africa–Charing Cross Hospital*).
4. **Norman Morris** (*Obstetrician and healthcare reformer*).
5. **Albert Neuberger** (*chemical pathologist*).
6. **William Kitchen Parker** (*physician and zoologist*).
7. **Sir Andrew Pollard** (*Chief Investigator on the Oxford–AstraZeneca COVID-19 vaccine*).
8. **Sir Rodney Robert Porter** (*Nobel Laureate, Physiology and Medicine*).
9. **Ann Redgrave** (*orthopaedic surgery*).

08.04.2023



## CONTENT

<b>Насирова Барно Ташпулатовна</b> <i>ТЕМА: КРАЕВЕДЧЕСКИЙ МАТЕРИАЛ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА</i>	5
<b>Subkhonova Madina Otabekovna</b> <i>METAPHORIC EXPRESSIONS IN DIFFERENT RELIGIOUS TEXTS</i>	9
<b>Xolova Shahnoza Davronovna, Sobirova E'tibor Normamatovna</b> <i>MEHNAT HAQIDAGI FRANSUZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLARNING IFODALANISHI</i>	13
<b>Xolmatov Jahongir Baxtiyor o`g`li, Otakuziyeva Vazira Usmonjonovna</b> <i>BIYOGAZ OLISH USULLARI</i>	19
<b>Jurakulova Shaxnozaxon Erkin qizi Otakuziyeva Vazira Usmonjonovna</b> <i>ATROF MUHITNI CHIQINDILARDAN QISMAN TOZALASH VA POLIMER MODDALAR BO`LGAN PLASTMASSALARNI QAYTA</i>	24
<b>Jabaraliyeva Ozodaxon Xoshimjon qizi Otakuziyeva Vazira Usmonjonovna</b> <i>KIMYO SANOATIDA KO`MIR KULINI OLISH VA QAYTA ISHLASH</i>	28
<b>Vahobov Shaxzodbek G`ofurjon o`g`li Otakuziyeva Vazira Usmonjonovna</b> <i>PLASTMASSALAR ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH</i>	32
<b>Mirshokirova Munisa, Bobomurodova Gulhayo</b> <i>ENGLISH AN INTERNATIONAL LANGUAGE IN THE WORLD</i>	37
<b>Abdumo`minova Dildora Oybek qizi</b> <i>TALAFFUZ ME`YORLARINING BUZILISHI YUKSALISHMI YOKI FOJEA?</i>	42
<b>Abduqodirov Behruz Murotjonovich</b> <i>«INTERACTIVE METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES»</i>	45
<b>Rabiyeva Mohidil G`ayratovna, Davronova Gulruh Ixtiyor qizi</b> <i>EVFEMIZMLARNING MULOQOTDA TUTGAN O`RNI</i>	49
<b>Jo`raeva Shoira Baxriddin qizi</b> <i>O'ZBEKISTONDA EKOTURIZM RIVOJLANISHINI OSHIRISH USULLARI</i>	53
<b>Matmuratova Arzigul Saparboyevna Madaminova Zaynab Abdrazzaqovna</b> <i>MATEMATIKA DARSLARINI AKTDAN FOYDALANIB TASHKIL QILISH</i>	58



## MEHNAT HAQIDAGI FRANSUZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA LINGVOMADANIY BIRLIKLARNING IFODALANISHI.

**Xolova Shahnoza Davronovna**

*Buxoro Davlat universiteti Tarjimashunoslik va lingvodicadaktika kafedrası o'qituvchisi*

**Sobirova E'tibor Normamatovna**

*Buxoro Davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada fransuz tilida mehnat mavzusidagi ayrim maqollarning o'zbek tiliga tarjimasi xususida qiyosiy-tahliliy fikrlar keltirilgan. Ikki tilda maqollar ekvivalentidagi o'xshashlik va farqli jihatlar, xalq og'zaki ijodida milliy mentalitetning ta'siri, so'zlar va iboralar tarjimasiga alohida e'tibor qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *maqol, mentalitet, madaniy meros, tarjima, ma'no, ekvivalent, matal*

Yurtimizda chet tillarni o'rganish va o'rgatishga juda katta e'tibor berilmoqda. Bunday imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda, bugungi kunda nafaqat professor-o'qituvchilar, balki izlanuvchi yoshlarimiz ham o'z tajribalarini bir-birlari bilan o'rtoqlashib chet tilida bilim-ko'nikmalarini mustahkamlab kelmoqdalar. Bugungi kunda yaratilgan bunday yuksak imkoniyatlar fransuz tili sohasida ham yangicha tadqiqotlarning amalga oshirilishiga sabab bo'lmoqda.

Til - bu insonlar o'rtasidagi muloqotning muhim vositasi bo'libgina qolmay, balki shu xalqqa xos bo'lgan milliy madaniyatni ham o'zida aks ettiradi. Jahon xalqlari urf-odatları, an'ana va qadriyatları bilan tanishishda ularni saqlovchi, avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim vosita sifatida frazeologik iboralarni o'rganish juda muhim sanladi. Xalq o'g'zaki ijodining eng muhim janrlaridan biri bo'lmish maqollar tilshunoslik va folklorshunoslikda o'rganilayotgan eng muhim mavzulardan biridir. Insonlar yashayotgan o'lkasi, madaniyati, tarixi, tabiati, iqtisodiyoti, milliy urf-odatlarıyu an'analari, milliy-madaniy merosi, xalq og'zaki ijodi, badiiy adabiyoti va san'atini maqollar va matallar orqali avloddan-avlodga yetkazib beradi.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan (Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov va b.), ular bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova),



yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi 70-80-yillarda tadqiq etilgan.

O'zbek va fransuz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilish jarayonida har ikkala xalqning tili va madaniyatining bir-biriga bo'g'liq ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Shunga ko'ra, lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan ayrim maqollar ba'zan ikki xalq tomonidan bir xil, ba'zan umuman boshqacha ifoda bilan o'zining xususiyatlarini ochib beradi. Shu o'rinda fransuz va o'zbek maqollarida xalqning o'tmishidan bugungi kunigacha bo'lgan barcha urf-odatlar o'z aksini topgan va xalq o'g'zaki ijodining namunalari sifatida maqollar bu vazifani bajarishda yetakchilik qiladi. O'zbek va fransuz xalqining mentalitetiga xos jihatlarni o'rganishda maqollar ikki xalqning o'ziga yarasha o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatib bera oladi. Shu ma'noda tilshunos olim A.V. Kunin "*frazeologizmlarning ko'pchiligining muallifi noma'lum bo'lib, ular xalq tomonidan yaratilgan*", degan fikrlarni asosli ravishda ko'rsatib o'tgan. "Proverbe" so'zi ingliz, nemis, fransuz va boshqa Yevropa tillarida faol tarzda ishlatiladi. Bizga ma'lumki, Suqrot "*proverbe*" terminini ishlatib, "*qisqa va lo'nda, esdan chiqmaydigan so'zlar birikmasi*" deb talqin qilgan. Xalq og'zaki ijodida ulkan boy merosi bilan o'zining munosib o'rniga ega bo'lgan maqollar insonlarning hayot darajasini yaxshilashga, tarbiyalashga, saboq berishga va o'z navbatida, muhim xulosa chiqarishga yordam beradi.

Shu o'rinda fransuz va o'zbek xalq maqollarining so'zma-so'z va ma'no jihatdan bir biriga yaqinligi, komponentlarning ba'zilari o'z manosida, ba'zilari esa ko'chma manoda qo'llanishi bilan birga ularning tarbiyaviy ahamiyati ham mushtarakligi bilan e'tiborga molikdir. Turli millatlarga mansub bo'lsa ham, insonlarning adabiyotga muhabbati yaxlitlikni tashkil qiladi. Ikki tilda uchraydigan maqollarda ezgu fazilatlar targ'ib etilgan bo'lib, ular ijobiy tuyg'ularni ifoda etishga yordam beradi. Mehnat haqidagi maqollarning mazmun-mohiyatiga to'xtalganda uni chuqur va yaqinroq o'rganganimizda, uning zamirida qanchalik ijobiy fikrlar borligini, insonning mehnati orqali qadrli bo'lishi, ayniqsa, mehnat insonni barkamollikka yetaklovchi mo'jizaviy yo'l ekanini anglash mumkin. Shu o'rinda, fransuz va o'zbek xalqiga xos bo'lgan maqollarning ma'no jihatdan bir-biriga yaqinligini ham ko'rish mumkin. Quyida ayrim maqollar tahliliga e'tibor qaratamiz:

1. "*Le maître des maitres est le travail*". Bu maqolning o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjimasini "*Ustalar ustasi – mehnat*". Bu variant o'zbek tilida ham



ishlatiladi, yoki « *Mehnat – eng yaxshi ustoz* » maqolini ekvivalent sifatida keltirish mumkin.

2. “*Le travail au présent, l’espoir à l’avenir*” – maqolni tarjima qiladigan bo’lsak, « *Hozirgi vaqtdagi mehnat, kelajakka umiddir* ». O’zbek xalq maqollaridan “*Mehnat qilsang yasharsan, katta-katta osharsan*”, yoki “*Bugun eksang, erta o’rarsan*” kabi ekvivalentlariga to’g’ri keladi.

3. “*Qui est oisif en jeunesse, travaillera dans sa vieillesse*” – ushbu maqolni so’zma-so’z tarjima qiladigan bo’lsak, « *Kimki yoshlikda dangasa bo’lsa, keksayganida mehnat qiladi* » degan ma’noni anglash mumkin. Bu “*Yoshlikda qilsang mehnat, qarilikda ko’rasan rohat*” yoki “*Tirishgan tog’dan oshar*” “*Ter to’kkan baxtli yashar*” kabi o’zbek xalq maqollariga ma’no jihatdan juda yaqin. Umuman olganda, bu maqollar va ularning mazmuni mehnatning ijobiy jihatlari haqida, insonlarni mehnat qilishga undaydi, mehnatning tagi rohat ekanini, mehnat insonni ulug’lashiga guvohlik beradi.

4. “*Grandes maisons se font par petite cuisine*” (*Petite cuisine agrandit la maison , les petites économies font les grandes maisons*) “*Mehnat bilan topilgan tiyin pulning onasidir*”, boshqa ma’nosi “*Tiyin-tiyindan pul mo’l bo’ladi*” bu maqol aynan so’zma-so’z tarjima qilinmasada, manosi o’xshash bo’lib, o’zbek xalq maqolidan “*Toma-toma ko’l bo’lur*” maqoli bilan bir ma’noga ega. Yana boshqacha variantiga to’xtaladigan bo’lsak:

5. « *Bonne est la maille qui sauve le dernier* » – Maqolni tarjima qiladigan bo’lsak : « *Yaxshi pul – bu so’nggi lahzada jonga ora kirgan chaqadir* ». Uning o’zbek tilidagi ekvivalentlari sifatida « *Toma toma ko’l bo’lur , tommay qolsa qo’ysa cho’l bo’lur* » , « *Pul tiyindan yig’ilar* » kabilarni keltirish mumkin.

6. « *Il a bien fait, il aura de l’herbe* » – « *Mehnat qilgan rohat topar* », « *Xazina g’oyibdan emas, mehnatdan* ». So’zma-so’z tarjimasi ham bir-biriga ma’nosi ham juda yaqin bo’lga mehnatning ezguligi, yaxshiligi haqidagi maqollar o’zbek xalq maqollariga juda ham yaqin ma’noga ega : « *Mehnat qilib topganing, qandu asal totganing* ».

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, fransuz va o’zbek xalq maqollari xalq og’zaki ijodining paremiologiya sohasi bo’yicha o’rganiladi va o’ziga xos bir qancha xususiyatlari bilan xalq o’g’zaki ijodining boshqa janrlaridan farqlanib turadi. Ya’ni, ularda fikr aniq, tugal xulosa, lo’nda hukm tarzida ifodalanadi, muayyan hukmni mantiqiy izchillikda, keskin qutbiylikda ifodalash yetakchilik qiladi hamda o’z va ko’chma ma’nolarda qo’llana olish imkoniga ega. Bundan tashqari, maqollarda ibratlilik, pand-



nasihat kabi jihatlar ustun turishi orqali o'zining umuminsoniy jihatlarini ko'rsatadi

Bir so'z bilan aytganda, fransuz va o'zbek xalq maqollari bu xalqlarning madaniy merosidir. Ularda xalqlarning barcha o'y-fikrlari, dunyoqarashi, turmush tarzi, fe'l-atvori va e'tiqodi aks etadi. Har bir millat o'ziga xos tavsiflarga ega ekan, bu ularning maqollariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Hatto ayrim fransuz va o'zbek maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsada, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvirlar maqollardagi milliy bo'yoqdorlikni ta'minlaydi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qosimova N. (2022). ТАРЖИМАНИ ОПТИМАЛЛАШТИРИШНИНГ КОГНИТИВ МЕХАНИЗМЛАРИ: Қосимова Нафиса Фарҳодовна, Бухоро давлат университети таржимашунослик ва лингводидактика кафедраси доценти, PhD (e-mail: n.f.qosimova@buxdu.uz) Карбозова Гульнара Кумисбековна, Заведующая кафедрой английского языкознания Южно-Казахстанского государственного университета имени М. Ауэзова, к.ф.н., доцент. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 23(23). извлечено от [http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8212](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8212)
2. Radjabov, R. (2023). ACCENTS ET MARQUES ORTHOGRAPHIQUES EN FRANÇAIS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 28(28).
3. Davronovna, X. S. (2022). VIKTOR GYUGONING "MISÉRABLES" ROMANIDA QO'LLANILGAN AYRIM FRAZEMALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI. ISSN 2181-3191 VOLUME 1, ISSUE 2 MAY 2022, 361. <http://researchedu.org/index.php/rae/article/view/934>
4. Kholova Sh.D., "Some features of certain phraseological units translation used in French literature of the nineteenth century", European journal of interdisciplinary research and development, 2022-yil 18-noyabr, volume 9, 70-74-betlar. [https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=SOME+FEATURES+OF+CERTAIN+PHRASEOLOGICAL+UNITS+TRANSLATION+USED+IN+FRENCH+LITERATURE+OF+THE+NINETEENTH+CENTURY&btnG=](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=SOME+FEATURES+OF+CERTAIN+PHRASEOLOGICAL+UNITS+TRANSLATION+USED+IN+FRENCH+LITERATURE+OF+THE+NINETEENTH+CENTURY&btnG=)



5. Sh.D.Xolova , “Frazeologik birlik-frazema-frazeologizm : tasnif va tadqiqot tahlili”, Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti, 2022-yil dekabr, 6/2022 son, 92-97 betlar.  
[https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8679](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8679)
6. Xafizovna, R. N. . (2022). Linguistic Politeness Theory Review: Yueguo Gu, Sachiko Ide, Shoshena Blum Kulka, Bruce Frasher and William Nolen, Hornst Arndt and Richard Janney. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2(5), 145-152.
7. Туйбоева, Ш. (2022). Простая конструкция предложения в узбекской и французской системной лингвистике.ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz) извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/5813](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5813).
8. Radjabov R. (2023). A PROPOS DU CONCEPT DORTHOGRAPHE FRANÇAISE. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 28(28).
9. Rajabmurodovich, R. R. (2023, February). FRANSUZ TILI ORFOGRAFIYASIGA UYG'ONISH DAVRI TILSHUNOS OLIMLARI TOMONIDAN KIRITILGAN O'ZGARTIRISHLAR TO'G'RISIDA. In " CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCESAND HUMANITIES (Vol. 9, No. 1).
10. Sirojova Z. INGLIZ, OZBEK VA RUS TILLARIDA RAVISHDOSH VA UNING SINKRETLASHUVI // Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 19.
11. Radjabov, R. (2023). ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ФРАНЦУЗСКОЯЗЫЧНОЙ ОРФОЭПИИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 30(30). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/914](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/914)
12. Subxonova, M. (2022). LINGVOMADANIY BIRLIKLARNING DOSTLIK HAQIDAGI INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA IFODALANISHI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 23(23). извлечено от [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/8213](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8213)
13. Khaydarova L. . (2023). Teaching Listening Comprehension as a Part of Educational Process at School. Web of Semantic:Universal Journal on Innovative Education 2(3) 259-263 Retrieved from <https://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/778>